

TERMINAL DAVRDAGI BEMORLARDA HAMSHIRALIK PARVARISHINI KO'NIKMALARI

Atajonova Nozirbibi
Xudarganova Rayxon

Khiva Medical tekhnikumi maxsus fan o'qituvchilari

Annotatsiya: Mazkur maqolada terminal davrda bo'lgan bemorlarga ko'rsatiladigan hamshiralik parvarishining mazmuni, asosiy maqsadlari va amaliy ko'nikmalari yoritilgan. Terminal davrda bemorning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy holatini yengillashtirishda hamshiraning roli alohida ahamiyat kasb etadi. Maqolada og'riqni kamaytirish, gigiyenik parvarish, ovqatlantirish, psixologik qo'llab-quvvatlash hamda bemor va uning yaqinlari bilan muloqot qilish ko'nikmalari batafsil bayon etilgan.

Kalit so'zlar: terminal davr, palliativ yordam, hamshiralik parvarishi, og'riqni boshqarish, psixologik yordam.

KIRISH

Terminal davr — bu kasallikning oxirgi bosqichi bo'lib, bemorni to'liq sog'aytirish imkoni mavjud bo'lmagan holat hisoblanadi. Ushbu davrda asosiy e'tibor davolashga emas, balki bemorning hayot sifatini yaxshilash, og'riq va azob-uqubatlarni kamaytirishga qaratiladi. Terminal davrdagi bemorlarga ko'rsatiladigan palliativ yordamda hamshiralarning kasbiy bilim va amaliy ko'nikmalari muhim o'rin tutadi.

Terminal davrdagi bemorlarda hamshiralik parvarishining maqsadlari

Hamshiralik parvarishining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

bemorning jismoniy og'riqlarini yengillashtirish;

hayotiy muhim funksiyalarni qo'llab-quvvatlash;

ruhiy va emotsional holatini barqarorlashtirish;

bemorning shaxsiy qadr-qimmatini saqlash;

oila a'zolariga psixologik va axborot yordamini ko'rsatish.

Asosiy hamshiralik parvarishi ko'nikmalari

1. Og'riqni baholash va boshqarish

Terminal davrda og'riq eng ko'p uchraydigan muammolardan biridir. Hamshira og'riq darajasini muntazam baholab, shifokor ko'rsatmasiga muvofiq dori vositalarini o'z vaqtida berishi, bemorning holatini kuzatib borishi zarur. Shuningdek, dori vositalaridan tashqari qulay holat yaratish, massaj elementlari va tinchlantiruvchi muhit ham og'riqni kamaytirishga yordam beradi.

2. Gigiyenik parvarish ko'nikmalari



Harakatsiz yoki zaif bemorlarda teri parvarishi alohida e'tibor talab etadi. Hamshira: terini toza va quruq holda saqlashi;

yotoq yaralari (prolejniy)ning oldini olish;

og'iz bo'shlig'i, ko'z va soch parvarishini ta'minlashi lozim.

Bu tadbirlar bemorning umumiy ahvolini yaxshilaydi va infeksiya xavfini kamaytiradi.

3. Ovqatlantirish va suyuqlik berish

Terminal davrdagi bemorlarda ishtahaning pasayishi kuzatiladi. Hamshira bemorni majburlamasdan, oz-ozdan, yengil hazm bo'ladigan ovqatlar bilan ovqatlantirishi, zarur hollarda parenteral yoki zond orqali ovqat berishni tashkil etishi kerak. Suyuqlik yetishmovchiligining oldini olish muhim hisoblanadi.

4. Nafas olishni yengillashtirish

Nafas qisishi terminal davrga xos belgilardan biridir. Hamshira bemorni qulay holatda joylashtirishi, xonani shamollatishi, kislorod terapiyasini to'g'ri tashkil etishi lozim. Nafas yo'llarining ochiqqligini ta'minlash ham muhim vazifadir.

5. Psixologik va emotsional qo'llab-quvvatlash

Terminal davrdagi bemorlar ko'pincha qo'rquv, tushkunlik va yolg'izlik hissini boshdan kechiradilar. Hamshiraning samimiy muloqoti, sabr-toqati, bemorni tinglashi va tushunishi katta ahamiyatga ega. Bemorning his-tuyg'ularini inkor etmasdan, unga ruhiy tayanch bo'lish hamshiralik parvarishining muhim qismidir.

6. Bemor yaqinlari bilan ishlash

Hamshira bemor oila a'zolariga kasallik holati haqida tushunarli va muloyim tarzda ma'lumot berishi, ularni ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlashi zarur. Yaqinlariga bemorga qanday g'amxo'rlik qilish bo'yicha tavsiyalar berish ham muhim hisoblanadi.

Terminal davr 2 ma'noga ega: inson umrining tugashi va kasallikning yakuniy bosqichi. Odatda terminal davrning quyidagi belgilanishi qo'llanadi: «Hatto kombinatsiyalangan davolashning barcha turlari yordamida bemorni tuzatish imkoni bo'lmagan holat va aksincha, faol davolash ushbu bemorga to'g'ri kelmaydigan holat». Odatda bunday holatda bemorning 6 oydan kamroq umri qolgan bo'ladi.

O'lim oldi holati–bevosita o'lishdan oldin va o'lim vaqtigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan o'limni kutish holati hisoblanadi. Terminal va palliativ parvarish haqida tushuncha.

Terminal parvarish, shunday davirda beriladiki, qachonki bemorni fiziologik salomatlik darajasi yomonlashganda, qaytmas holatlar boshlanishi va oxir yaqinlashayotganligini his qilish.

Bu holat «hayot oxiri» ni (end of life) anglatadi. Palliativ parvarish bemorning nuqtai-nazaridan simptomlarni yumshatish va hayot sifatini oshirish (QOL) birinchi galdagi maqsad hisoblanadi, biroq vazifalar vaziyatga qarab farq qilinadi va hamshira ushbu bemor uchun mos bo'lgan palliativ parvarishni taqdim qilishi zarur. Butunjahon Sog'liqni Saqlash



Vazirligi bo'yicha ta'riflash: palliativ parvarish–bu «inkurabel bemor va uning oila a'zolarining hayot sifatini oshirish, shuningdek og'riq va boshqa jismoniy, ruhiy, ijtimoiy va ma'naviy xususiyatga ega muammolarning oldini olish, baholash va davolash bo'yicha tadbirlardir».

Xospis parvarish haqida tushuncha «Xospis» (hospice) iborasining datlabki ma'nosi– «insonni samimiylilik va mehmonnavozlik bilan qabul qilish», «iliq qabul qilishni o'rgatish». Xospis parvarishining falsafasi va g'oyasi–bemor atrofdagilarning unga inson sifatida hurmat qilishni sezib–hayotining oxirini yashash uchun terminal bemorga jismoniy va ruhiy yordamni ko'rsatishni ko'zda tutadi. · 1967 yilda London yaqinida ingliz shifokori Sesili Sonders tomonidan avliyo Kristofer nomidagi xospis ochilgan.

Xospis g'oyasi.

Xospis bino yoki muassasani anglatmaydi. · Xospis– bu o'layotgan bemor qolgan umrini oxirigacha yashashi uchun kompleksli parvarishni ko'rsatishga yo'naltirilgan falsafiy g'oya asosidagi umumlashtirilgan tushuncha.

Terminal davrda bemorlarning parvarishi Terminal davrda hamshiralik parvarishining maqsadi– hayotining oxirgi daqiqalarini yashashga imkon beruvchi bemorning odatdagi kundalik hayotini qo'llab–quvvatlash uchun va umumiy azoblarni bartaraf qilish maqsadida hayotning yakuniy davrida bo'lgan bemor (terminal bemor) ga malakali yordam berishdan iborat.

SHu bilan birga bemorning oila a'zolariga zaruriy yordam ko'rsatish zarur.

Bemor va uning oila a'zolarini terminal parvarishni amalga oshirayotgan hamshira doimo bemorning yonida bo'lib, ularning himoyachisi sifatida ishtirok etib, bemor odatdagi hayot tarzini yashash va hayotiy maqsadlarga erishish uchun o'zining imkoniyatlaridan foydalanish uchun boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda guruh tashkil qilishi lozim. Terminal davrda hamshiraning tutgan o'рни:

(1) Bemor bedavo kasalga chalingani va hayot jarayonining yakuniy bosqichida ekanligini tushunib, uning hayot tarziga hurmat qo'rsatishi zarur.

(2) Terminal bemorning jismoniy, ruhiy, ijtimoiy ruhia azoblarining o'zaro murakkab aloqasini ifodalovchi umumiy azoblarni tekshirish va ularni bartaraf qilish yoki yengillashtirishga harakat qilish lozim.

(3) Xolistik yondashuv asosida bemorning hayot sifatini oshirishda malakali yordam ko'rsatish.

(4) Himoyachi nuqtai– nazaridan yordam ko'rsatib bemorning hohish–irodasini hurmat qilish.

(5) Terminal bemorning oila a'zolarining azoblarini tushunish va yordamni ko'rsatish.

(6) Buyruqli davolash usulida hamshiralik parvarishi bo'yicha mutaxassis sifatida o'z vazifalarini amalga oshirish.



O'lim mazmuni va mohiyati. Inson uchun o'lim · O'limga bo'lgan munosabat inson turmushining qaysi tomoniga e'tibor berishimizga ko'ra farq qiladi. · Odatda har qanday tirik jonga o'lim yozilgan.

O'lim biologik organizm sifatida hayot faoliyatining tugashini anglatmaydi, insonning hayot faoliyatining tugashi va xulosalari chiqarishni ifodalab, ancha chuqur ahamiyatga ega. · Insonning individuum sifatida o'limi zaruriy va muqarrar hodisa bo'lib hisoblanadi, individuum yo'qolib ketishi mumkin, lekin uning genlari esa keyingi avlodlarga o'tadi. (1) O'lim mohiyati

1. Qon aylanishining muqarrar to'xtashi Yurakdan otilayotgan qon qon tomirlari orqali butun organizm bo'yicha aylanib, organlar va to'qimalarni kislorod hamda glyukoza ko'rinishidagi ozuqa moddalari bilan tahminlaydi. Qon aylanishi to'xtagan taqdirda darhol kislorod yetishmovchiligi yuzaga keladi va bu holat to'qima hujayralari ishlashining to'xtashiga olib keladi. Agar bu holat belgilangan vaqtdan uzoqroq davom etsa, hujayralar ishlashining tiklanishi qaytmas bo'lib, o'limga olib keladi.

2. Ruhning tanadan chiqib ketishi Qadimgi vaqtlarda odamlar o'lim kelishi bilan ruh tanadan umrbod chiqib ketishiga ishonganlar.

Ruh psixologik va emotsional funktsiyalar sifatida ko'rilgan (ruh insonning fikr va hatti-harakatlari asosiy omili bo'lib hisoblangan).

Bemor xususida qon aylanish to'xtashi bilan ruhi tanadan chiqib ketadi deb hisoblashgan, biroq o'sha vaqtlarda o'limning asosida qon aylanishi to'xtashini emas, balki ruh chiqib ketishini ko'rishgan.

3. Organizmning yagonalik qobiliyatining qaytmas yo'qolishi Inson organizmining ishlashi uchun markaziy asab tizimi tananing har bir qismi harakatini boshqarishi va tana bir-biriga mos bo'lib harakatlanmog'i zarur.

Tibbiy texnologiya sohasidagi taraqqiyot insonning yurak, buyrak va boshqa muhim organlarini sunhiy organlarga almashtirishga imkon berdi, bu holat hatto organlar bo'lmaganda ham inson hayotini tahminlashga yordam bergan.

Biroq inson organiga o'xshagan bir narsa borki, uni almashtirib bo'lmaydi va insonning hayot faoliyati uchun ahamiyatli hisoblanadi. Bu organlar funktsiyasini boshqarishning yagonalik qobiliyatidir. Ushbu yagona qobiliyat markaziy nerv tizimi, xususan bosh miyaning asab tizimi bilan boshqariladi, shuning uchun miya funktsiyalarining yagonalik qobiliyati inson uchun eng muhim hisoblanadi.

4. Ijtimoiy hamkorlikka bo'lgan qobiliyatning qaytarib bo'lmaydigan yo'qolishi. Insonning boshqa jonzotlardan farqi shundaki, insonda ong bor va u ijtimoiy hayotni yuritadi.

Agar inson ongini va shu bilan birgalikda ijtimoiy hamkorlik ko'nikmalarini yo'qotsa, shaxsning nuqtai-nazariga ko'ra bu holat o'lim sifatida ko'riladi.





XULOSA

Terminal davrdagi bemorlarda hamshiralik parvarishi — bu yuqori kasbiy mahorat, insonparvarlik va sabr-toqatni talab etuvchi jarayondir. Hamshira nafaqat tibbiy yordam ko'rsatuvchi mutaxassis, balki bemor va uning oilasi uchun ruhiy tayanch hamdir.

To'g'ri tashkil etilgan hamshiralik parvarishi bemorning oxirgi hayot davrini imkon qadar osoyishta va munosib o'tkazishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hamraev A. J., Alimov A. V., Ahzamxo'jaev T. S. "Xirurgiya va reanimatsiya asoslari". Toshkent, "Zar qalam" nashriyoti, 2005 yil.
2. Muxtorov M. X., Qaxxorov I. K. "Reanimatsiya asoslari" Toshkent, "Ilm-ziyo" nashriyoti, 2005 yil.
3. Razikova I. S., Alikulova D. Ya. "Gerontologiyada xamshiralik ishi" o'quv qo'llanma.
4. Ziyonet

